

TO'GARAK ISHLARINI RIVOJLANTIRISHDA TEXNOLOGIK XARITALARNI AHAMIYATI

Xalilova Odina Akromovna

GulDu talabasi

Annotatsiya: *Texnologik xaritaning o'quvchi–talabaning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi, uni shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqadi. Bu esa o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Maqolada ham texnologik xaritaning ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlari: *texnologik xarita, uslub, jarayon, talaba-o'qituvchisi, o'qituvchi, o'quvchi, dars, loyiha, texnologiya, maqsad, vazifa, natija, o'quv jarayoni.*

KIRISH

Umumiy o'rta ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish, ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash zarur. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida xalq ta'limi tizimi xodimlarining zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari, ulardan ta'lim jarayonida samarali foydalana olishlari hamda darslarni puxta loyihalashtirishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda o'qituvchi darsni samarali tashkil eta olishi uchun o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirib olishi zarur. O'qituvchi bu jarayonda o'quv fanining o'ziga xos tomonlari, o'qitishning texnik va didaktik vositalari, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda o'quvchi

bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina ko‘zlangan natijaga erishish mumkin.¹ O‘qituvchining dars jarayonini oldindan loyihalashtirib olishida u tomonidan bo‘lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olish katta ahamiyatga ega. Chunki darsning texnologik xaritasi o‘qitilayotgan fan va uning xususiyati, o‘tiladigan mavzu mazmuni, o‘quvchilarning imkoniyati hamda ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzib olish uchun o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, har bir fanning xususiy metodikasi, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi, juda ko‘p metodlar va usullarni bilishi kerak bo‘ladi. Har bir darsning rangbarang, qiziqarli bo‘lishi avvaldan puxta o‘ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog‘liq.² Darsning texnologik xaritasini qay ko‘rinish yoki shaklda tuzish o‘qituvchining shaxsiy tajribasi, qo‘ygan maqsadi, vazifasi va ko‘zlayotgan natijasi hamda ixtiyoriga bog‘liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo‘lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kutilayotgan natija, dars jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos texnologiyasi to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak.³ Texnologik xaritalarning turli ko‘rinishlari va shakllari mavjud bo‘lib, o‘qituvchi o‘z tajribasi, qo‘ygan maqsadi va kutilayotgan natijaga bog‘liq holda ulardan birini tanlashi mumkin. Masalan, biz keltirilgan namunadan tashqari texnologik xaritaning boshqacha ko‘rinishidan foydalanishni tavsiya etamiz (1-jadval).

1-jadval quyidagi tartibda to‘ldiriladi:

1. Jadvalning birinchi satrida o‘qitilayotgan fanning nomi va sinfi yoziladi. Masalan, «Mehnat ta‘limi», 5-sinf.
2. Keyingi satrda aniq bir dars mavzusi, taqvim-mavzu rejadagi tartib raqami yoziladi.

¹ Tolipov O‘.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.J. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalar to‘garak raxbarlari uchun namunaviy dasturlar. T.: Nizomiy nomidagi TDPU., 2021. 21 b.

² www.avloniymtk.uz – Xalq ta‘limi xodimlari uchun masofadan o‘qitish kurslari. «Mutaxassislik fanlari» bloki «Fanni o‘qitishda pedagogik texnologiyalar» moduli sahifasi.

³ Ishmuhamedov R. va boshqalar. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T. : O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste‘dod» jamg‘armasi, 2018.

3. «Dars maqsadi» satrida esa o'qituvchi tomonidan oldindan rejalashtirilgan natija, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi tomonidan dars yakunida erishiladigan natija yoziladi. Dars maqsadi (darsga qo'yilgan maqsad) 45 daqiqa davomida bajariladigan (erishiladigan), aniq, hayotiy (real) va dars yakunida baholanadigan (o'lchamli) bo'lishi maqsadga muvofiq. Darsning ta'limiy maqsadi dars jarayonida o'quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar asosida belgilanadi. Masalan, o'quvchilar mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni aytadilar. Darsning tarbiyaviy maqsadi dars jarayonida o'quvchilarda qaysi axloqiy sifatlar shakllantirilishi asosida belgilanadi. Masalan, o'quvchilar ekinlarni va atrofmuhitni himoya qilish muammolariga o'z munosabatlarini bildiradilar. Darsning rivojlantiruvchi maqsadi dars natijasida o'quvchilarda qaysi bilimlar va axloqiy fazilatlar rivojlantirilishi asosida belgilanadi. Masalan, o'quvchilar ekinlarni himoya qilishning eng samarali usullarini izlab topadilar.

4. «Resurslar» satrida dars uchun zarur bo'lgan materiallar va jihozlar yoziladi. Masalan, «Mehnat ta'limi» o'quv qo'llanmasi har bir o'quvchi uchun, slaydlarni namoyish qiluvchi multimedia proektor, «Ekinlarni himoya qilish usullari, ularning birbiriga nisbatan afzallik va kamchiliklari» mavzusi bo'yicha 10 ta slayd, aqliy hujum uchun 1 ta o'quv plakati, test uchun kartochkalar (30 ta 4 xil variantda) va boshqalar.⁴

5. «Dars rejasi» satrida dars maqsadiga erishish uchun bajariladigan ishlar ketmaketligi va ularga ajratiladigan vaqi yoziladi.

Masalan:

a) «Aqliy hujum»ni o'tkazish uchun muammoli vaziyat o'rta tashlanadi. Masalan, «Ekinlarni himoya qilish – bu ...», ajratiladigan vaqt 10 daqiqa.

b) «Ekinlarni himoya qilish usullari, ularning bir-biriga nisbatan afzallik va kamchiliklari» mavzusida ma'ruza (10 daqiqa).

⁴ Mehnat ta'limi fanidan taqvim-mavzu reja. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2020. -11-b.

c) Kichik guruhlarda ishlash: «Rezyume» texnologiyasi asosida ekinlarni himoya qilish usullarining bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish (15 daqiqa).

6. «Darsning tashkiliy tuzilishi» qismida darsning har bir bosqichida amalga oshiriladigan faoliyat mazmuni yoziladi.

Bunda dastlab har bir bosqich maqsadi yoziladi. Masalan, «Motivatsiya» bosqichining maqsadi o'quvchilarni mavzuni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.

So'ngra bosqichni amalga oshirishga ketadigan vaqt ko'rsatiladi. Shuni esda tutish lozimki, mavzuni e'lon qilish va motivatsiya uchun ajratiladigan vaqt umumiy vaqtning 10%ini, mavzu bo'yicha axborot berish uchun 10%ini, o'quvchilarning mustaqil ishi uchun 60%ini, darsni umumlashtirish va yakunlash uchun 20%ini tashkil qilishi kerak.

Shundan so'ng o'quvchilar faoliyati turlari sanaladi. Masalan, «O'quvchilar aqliy hujumda «Ekinlarni himoya qilish – bu ...» mavzusi bo'yicha ishtirok etadilar. O'quvchilar ekinlarni himoya qilish chora-tadbirlari haqidagi fikrlarini bildiradilar. Masalan, ekinlarni kasallik, begona o't va zararkunandalardan himoya qilishning zarurligi va boshqalar.

1-jadval.Darsning texnologik xaritasi

Fan, sinf	
Dars mavzusi	
Darsning bo'limdagi tartib raqami	
Maqsadi / darsdan kutilayotgan natijalar	Ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi
Dars o'tish uchun resurslar	
Dars rejasi	
Vaqt taqsimoti ko'rsatilgan jadval	
DARSNING TASHKILIY TUZILISHI	
I-BOSQICH. MOTIVATSIYA	
Bosqich maqsadi	
Bosqich davomiyligi	
O'quvchilar faoliyatini tashkillashtirish turi	
Bu bosqichdagi o'qituvchining faoliyat turi va vazifalari	

2-BOSQICH. AXBOROT	
Bosqich maqsadi	
Bosqich davomiyligi	
O'quvchilar faoliyatini tashkillashtirish turi	
Bu bosqichdagi o'qituvchining faoliyat turi va vazifalari	
3-BOSQICH. INTERFAOL MASHQLAR	
Bosqich maqsadi	
Bosqich davomiyligi	
O'quvchilar faoliyatini tashkillashtirish turi	
Bu bosqichdagi o'qituvchining faoliyat turi va vazifalari	
4-BOSQICH. DARSGA YAKUN YASASH	
Bosqich maqsadi	
Bosqich davomiyligi	
O'quvchilar faoliyatini tashkillashtirish turi	
Bu bosqichdagi o'qituvchining faoliyat turi va vazifalari	

XULOSA

Texnologik xaritalar asosida tayyorlangan dars ishlanmalaridan foydalangan holda olib borilgan darslar samarali natija berib, o'quvchilarni bevosita o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'qituvchilar texnologik xaritalar tuzish va darslarni oldindan loyihalashtira olishi uchun pedagogika va psixologiya fanlari hamda o'qitadigan fanining nazariy asoslarini egallagan bo'lishi lozim. Chunki mazkur fanlarga oid bilimlarni o'zlashtirmasdan o'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil eta olmaydi. Shuning uchun o'qituvchi dars, dars maqsadi, ta'lim metodi, dars jihozi, dars ishlanmasi haqida to'la ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. www.avloniymtk.uz – Xalq ta'limi xodimlari uchun masofadan o'qitish kurslari. «Mutaxassislik fanlari» bloki «Fanni o'qitishda pedagogik texnologiyalar» moduli sahifasi.

2. Ishmuhamedov R. va boshqalar. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T. : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste'dod» jamg'armasi, 2018.

3. Mehnat ta'limi fanidan taqvim-mavzu reja. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2020. -11-b.

4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.]. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalar to'garak raxbarlari uchun namunaviy dasturlar. T.: Nizomiy nomidagi TDPU., 2021. 21 b.

5. Sharipov Sh.S. Maktab o'quvchilari ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish usullari. «Xalq ta'limi» jurnali. 2020 yil № 4.

6. www.arxiv.uz

7. www.aim.uz

8. www.edu.uz

9. www.elibraly.uz